

ALEKSANDR FAYNBERG HAYOTI VA IJODI

Meliqo'ziyeva Fotimaxon

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti Tarjimonlik fakulteti TARB 2143-guruh
talabasi

Aleksandr Arkadiyevich Faynberg rus shoiri, O'zbekiston xalq shoiri. O'zbekistonning she'riy osmonida Aleksandr Faynberg mubolag'asiz eng yorqin nuroniylardan biri hisoblanadi. Uning ijodi juda ko'p qirrali. Aleksandr Arkadyevich Faynberg 1939-yil 2-noyabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. Faynberg maktabni bitirgach, Toshkent topografiya texnikumiga o'qishga kirgan. 1965-yil Toshkent universitetini tugatgach, talabalar gazetasida ishlagan. Uning otasi Arkadiy Lvovich Faynberg va onasi Anastasiya Aleksandrovna Aleksandr tug'ilishidan ikki yil oldin Nvosibirskdan Toshkentga ko'chib kelishgan. Aleksandr Faynberg asli rossiyalik bo'lisligha qaramay, umrining asosiy qismini Toshkentda o'tkazgan. Shuning uchun ham u xalqimiz orasida "Qalbi o'zbek shoir" nomi bilan mashhur. Aleksandr Faynberg O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi bo'lgan va o'n beshta she'riy to'plam yaratgan. Adibning "Smena", "Yangi dunyo", "Yoshlik" kabi she'rlari "Yangi Volga" jurnalida va xorijiy mamlakatlarda, shuningdek: AQSh, Kanada va Isroilning turli xildagi nashrlarida chop etilgan. Faynberg hayoti davomida ko'plab asarlar muallifiga aylangan va uning ijodlari dunyo yuzini ko'rgan. Misol tariqasida: "Etyud", "Soniya", "She'rlar", "Olis ko'riklar", "Ijobat", "Qisqa to'lqin", "Yoyma to'r", "Erkin sonetlar" she'riy to'plam muallifi hisoblanadi. U o'zining asarlarida xalqlar o'rtasidagi hamjihatlik, milliy g'oya, millatlar farovonligi doirasida fikr yuritgan. Uning she'riy ijodida rus va Yevropa shoirlarining eng yaxshi badiiy tajribalari namoyon bo'lgan. U nafaqat rus yoki Yevropa, balki sharq mumtoz she'riyati an'analari bilan ham mashg'ul bo'lgan.

Aleksandr Faynberg ijodining asosiy qismini badiiy tarjima tashlik qiladi va uning tarjima asarlari hozirgi zamon avlodlari uchun ham qo'l kelmoqda. U o'zbek milliy adabiyotining namoyondalari bo'lmish Alisher Navoiy g'azallarini, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon shoirlarining she'r va dostonlarini mukammal tarzda rus tiliga tarjima qilgan. Uning yordami bilan o'zbek shoirlaring ajib bir asarlari dunyo yuzini ko'rdi. U nafaqat tarjimonlik yoki she'rlar bilan chegaralanib qolmadi, uning mashhur ssenariylari ham mavjud. Shular jumlasidan: "Mening akam", "Jazirama oftob tagida", "Qandahorda toblanganlar", "Jinoyatchi va oqlovchilar" ssenariylari asosida filmlar suratga olingan. Faynberg ssenariysi asosida to'rtta to'liq metrajli badiiy film hamda yigirmaga yaqin multfilmlar yaratilgan. Faynberg 1961-yilda Inna Glebovna Koval bilan turmush qurban. 2009-yil 14-oktabrda Aleksandr Faynberg Toshkent shahrida vafot etgan. Toshkentdagi Botkin qabristonining bo'limiga dafn etilgan. Faynberg yetmush yillik hayoti

davomida salmoqli tarzda ijod qildi va ko'plab ijodkor yoshlari qalbidan joy olgan. Shoiring vafotidan keyin ham uning ijodi yuksalib boraverdi. Misol uchun, G.V.Malixinaning "Aleksandr Faynberg lirikasidagi badiiy obrazlar va tematik dominantlar tuzilishi" magistrlik dissertatsiyasi Faynberg ijodini o'rganishga bag'ishlangan. Arkadiy 2008-yilda Aleksandr Sergeyevich Pushkin medali, 2004-yilda O'zbekiston xalq shoiri va 1999-yilda O'zbekiston xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi unvonlari bilan taqdirlangan. Aleksandr Faynbergning she'rlarida juda ham ko'p ajoyib va yorqin hazil bor. "Rubayat torlari" she'rida u o'zbek choyxonasini o'zgarmas palov bilan shunday zavq va shavq bilan tasvirlaganki, har bir o'quvchining yuzida tabassum paydo bo'ladi hamda kayfiyati ko'tariladi. Faynberg nafaqat, Rossiyada, balki O'zbekistonda ham hurmat va ehtiromga sazovor bo'lgan. Toshkent shahrida joylashgan Adiblar xiyobonida barcha o'zbek shoirlari va ijodkorlari qatorida Aleksandr Faynberg haykali ham qad rostlab turibti. Bu unga bo'lgan o'zbek xalqining cheksiz hurmati va ehtiromi hisoblanadi. Uning hayoti va ijodini o'rganish maqsadida ko'plab o'zbek olimlari va adabiyot ixlosmandlari o'rganishlar olib borishmoqda. Qalbi o'zbek shoir va ijodkor Aleksandr Faynberg o'zining asarlarida millat ruhi va tinchligi, millatlararo hamjihatlik, mehmondo'stlik haqida fikr yuritish bilan birga, shoir o'z bolaligini va yoshlik davrlarini ham yoritadi. Uning nodir asarlari-yu tarjimalari yuksak baholanadi. Shoir xalqimizning ma'naviyatini yuksaltirishda va boshqa davlatlar bilan hamjihatlikni mustahkamlagani uchun "O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri" unvoni bilan taqdirlandi. Faynberg yillar davomida o'zining yuqori darajadagi cho'qqisini saqlab keldi va u shunday asarlar yozdiki, bu asarlar yillar davomida har bir kitobxonning qalbidan joy egallaydi, shunchaki o'zi uchun cho'qqini yaratib oldi. Ijodkor va uning asarlari kitobxonlar qalbida o'chmas iz qoldirdi va chuqr o'rinnlarni egalladi va egallab kelmoqda.

Xulosa

Aleksandr Faynberg o'zbek she'riyatining eng ko'zga ko'ringan namoyan dalaridan biri ekanligi shubhasiz. Uning ismi va ishi butunlay o'zbek muxlislari va shoirlari orasid ao_zgarmasdir. Faynberg she'riyatida tarixiy va hozirgi davrlar, G'arb va Sharq, millatchilik va baynalmilallik, G_arb va Sharq esa alohida estetik soha yaratish uchun birlashdi. Aleksandr Arkadevich biz uchun, o'zbekistonliklar uchun uning o'z vatanining haqiqiy vatan parvarligi uchun juda qadrlidir. Aleksandr Faynbergning mumtoz she'riyatning eng yaxshi an'analari va O'zbekiston zaminiga mehr-muhabbat tuyg'ulari singdirilgan beqiyos va noyob asari adabiyotimiz tarixida alohida sahifadir. Aleksandr Faynbergni tilidan yoki millatidan qat'i nazar, O'zbekistondagi barcha adabiyot ixlosmandlari yaxshi bilishadi va hurmat qilishadi.